



Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyul)



Tog' kon sanoati va ochiq konlarda ishlash
807,0 mlrd so'm 90,3%



Ishlab chiqaradigan sanoat
5155,5 mlrd so'm 108,7%



Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash
1389,3 mlrd so'm 75,3%



Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish
44,3 mlrd so'm 42,7%

Рисунок 1

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7396,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 96,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,7 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 90,3 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 108,7% ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 75,3 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 42,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 807,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,9 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2,3 martani, gaz kondensati – 126,4 % ni, neft qazib olish – 131,3 % ni, qum – 85,2% ni va chaqiq tosh – 103,0 % ni tashkil etdi.



| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--------------------------------|----------------------|----------------------|-----------|
| Qum, ming t. | 70,0 | 59,7 | -10,3 |
| Neft, ming t. | 12,4 | 16,2 | 3,8 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 638,4 | 1470,4 | 832,0 |
| Gaz kondensati, ming t. | 131,7 | 166,4 | 34,7 |

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|-----------------------------|----------------------|----------------------|-----------|
| Chaqiq tosh, <i>ming t.</i> | 95,8 | 98,7 | 2,9 |




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5155,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,7 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,1 % ni (2019-yil yanvar-iyul oylarida – 0,0 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 31,9% (11,4 %), oʻrta – quyi texnologiyali – 5,2 (2,7 %), va quyi texnologiyali – 62,8 (26,9 %) tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yumshoq bug`doy va spelta uni – 114,4 % ni, plastmassa quvurlar – 110,4 % ni, kaliy xlorid – 103,1 % ni, polietilen – 102,5 % ni, ip-kalava – 99,5% ni, paxta tolasi – 81,7 % ni.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---------------------|----------------------|----------------------|-----------|
|---------------------|----------------------|----------------------|-----------|

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 78,4 | 89,7 | 11,3 |
| Plastmass quvurlari, mingt. | 2,6 | 3,0 | 0,4 |
| polietilen, mingt. | 76,8 | 78,7 | 1,9 |
| kaliy xlorid, ming t. | 115,2 | 118,8 | 3,6 |
| Ip-kalava, ming t. | 13,8 | 17,4 | 3,6 |
| Paxta tolasi, ming t. | 30,0 | 21,8 | -8,2 |



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1389,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,8 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 75,3 % tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|-------------------------------|----------------------|----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt/s | 7640,5 | 5548,0 | -2092,5 |
| Issqlik energiyasi, ming gkal | 2338,7 | 1827,2 | -511,5 |



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-iyul | 2020-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|--|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 4253,4 | 3673,9 | -579,5 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 10741,0 | 18139,0 | 7398,0 |
| Qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 6825,1 | 8307,8 | 1482,7 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 122,2% ga, hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 168,9 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 8,6 % ga pasayishi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2207,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 96,7 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlar

Nooziq-ovqat mahsulotlari



2020-yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 57,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 40,7 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 2,1 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmlari


Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan G`uzor tumani 1511,8 mlrd.so`mni, Nishon tumani 1488,8 mlrd. so`m, Qarshi shahri 1396,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.

| | 2020-yil yanvar-iyul mlrd.so`m | Fizik hajm indeksi, % da |
|-----------------------------|--------------------------------|--------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 7396,1 | 96,7 |
| Qarshi sh. | 1396,3 | 100,4 |
| Shahrisabz sh. | 143,5 | 98,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| G'uzor | 1511,8 | 102,1 |
| Dehqonobod | 302,5 | 95,1 |
| Qamashi | 217,1 | 114,3 |

| | 2020-yil yanvar-iyul mlrd.so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|----------------------|---|-------------------------------------|
| Qarshi t. | 367,2 | 78,6 |
| Koson | 373,6 | 90,8 |
| Kitob | 172,0 | 102,5 |
| Mirishkor | 182,2 | 102,4 |
| Muborak | 361,7 | 75,9 |
| Nishon | 1488,8 | 91,4 |
| Kasbi | 180,7 | 110,5 |
| Chiroqchi | 156,2 | 107,2 |
| Shahrisabz t. | 303,9 | 102,2 |
| Yakkabog' | 238,6 | 100,4 |

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Kasbi tumanida (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 110,5 %), G'uzor tumanida (102,1 %), Qamashi tumanida (114,3 %), Chiroqchi tumanida (107,2 %), Mirishkor tumanida (102,4%), Kitob tumanida (102,5 %) va Shahrisabz tumanida (102,2%) Yakkabog' tumanida (100,4 %) Qarshi shaxrida (100,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| | |
|---|--|
|  | Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da |
|---|--|



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi G'uzor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,4 %), Nishon tumani (20,1 %), Qarshi shahriga (18,9 %), Koson (5,1%) hamda Qarshi tumanlariga (5,0%) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahri (1,9 %) hamda Chiroqchi (2,1%) Kitob tumaniga (2,3%) to'g'ri kelmoqda.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020-yilning yanvar-iyul oylarida)

| | mlrd.so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da |
|-----------------------------|---------------|------------------------------|--|
| Qashqadaryo viloyati | 2207,6 | 100,0 | 96,7 |
| Qarshi sh. | 696,8 | 31,6 | 95,0 |
| Shahrisabz sh. | 128,8 | 5,8 | 93,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| G'uzor | 60,3 | 2,7 | 96,0 |
| Dehqonobod | 36,6 | 1,7 | 97,9 |
| Qamashi | 111,1 | 5,0 | 98,3 |
| Qarshi t. | 103,5 | 4,7 | 98,2 |
| Koson | 194,2 | 8,8 | 90,0 |

| | | | |
|----------------------|-------|-----|-------|
| Kitob | 136,2 | 6,2 | 97,8 |
| Mirishkor | 54,4 | 2,5 | 98,6 |
| Muborak | 51,0 | 2,3 | 97,3 |
| Nishon | 56,4 | 2,6 | 97,1 |
| Kasbi | 50,1 | 2,3 | 84,7 |
| Chiroqchi | 127,2 | 5,8 | 98,6 |
| Shahrisabz t. | 204,8 | 9,3 | 99,5 |
| Yakkabog' | 196,1 | 8,9 | 109,3 |

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atda eng yuqori ko'rsatgich Yakkabog' tumanida (2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,3 %) ni, Shahrisabz tumanida (99,5 %) ni, Chiroqchi tumanida (98,6%) ni Mirishkor tumanida (98,6%) Qamashi tumanida(98,3%) va Qarshi tumanida (98,2 % ni).eng kam ko'rsatgich Kasbi tumanida (84,7 %) tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (iste'mol tovarlari hajmida 31,6 %) ni, Shahrisabz tumanida (9,3%) ni, Yakkabog' tumanida (8,9 %) ni va Koson tumanida (8,8%) ni, Shahrisabz shahrida (5,8%) ni tashkil etadi.



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1143,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nishon tumanida (9724,4 ming so'm), G'uzor tumanida (7401,0 ming so'm), Qarshi shahrida (5058,9 ming so'm), Muborak tumanida (4158,0 ming so'm) va o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat – 2247,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)**

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|-----------------------|---------------------|-----------------------|
| Qarshi sh. | 5058,9 | 2524,8 |
| Shahrisabz sh. | 1030,4 | 924,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| G'uzor | 7401,0 | 295,2 |
| Dehqonobod | 2050,6 | 248,3 |
| Qamashi | 798,9 | 408,8 |
| Qarshi | 1478,3 | 416,5 |
| Koson | 1307,7 | 679,7 |
| Kitob | 652,3 | 516,5 |
| Mirishkor | 1523,2 | 455,2 |
| Muborak | 4158,0 | 586,3 |
| Nishon | 9724,4 | 368,7 |
| Kasbi | 918,6 | 254,7 |
| Chiroqchi | 378,7 | 308,3 |
| Shahrisabz | 1369,5 | 922,7 |
| Yakkabog' | 906,1 | 744,7 |




**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi
(2020-yil yanvar-iyul oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2280,2mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,8% ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0%), Kitob tumanida (95,3 %), Shahrisabz

shahrida (82,7 %), Chiroqchi tumanida (82,5 %), Yakkabog' tumanida (78,8%), shu bilan birga, eng kichkina ulush Nishon tumanida (3,8 %), G'uzor tumanida (4,4%), Dehqonobod tumanida (11,5%) va Muborak tumanida (13,6%) kuzatildi.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-Avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3714 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 734 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 19,8%) Qarshi shahriga, 430 tasi (11,6 %) Kitob tumaniga, 333 tasi (9,0 %) Yakkabog' tumaniga, 318 tasi (8,6 %) Shahrisabz shahriga, 300 tasi (8,0 %) Chiroqchi tumaniga, 279 tasi (7,5 %) Qarshi tumaniga, 208 tasi (5,6%) Qamashi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020-yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 528 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 88 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,7 %) Qarshi shahrida, 54 tasi (10,2 %) Chiroqchi tumanida, 52 tasi (9,8 %) kitob tumanida, 46 tasi (8,7%) Yakkabog` tumanida, 42 tasi (7,9 %) Shahrisabz shahrida, 32 ta (6,0 %) Qarshi tumanida hamda Shahrisabz tumanida 32 tasi (6,0 %) tashkil etildi.

Sanoat statistikasi
bo`limi
Tel.: (75) 221-32-36